SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 28 - mart 111-9-128-Q/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumanidagi barcha ahamiyatdagi yo‘l va ko‘chalar bo‘yida joylashgan maktablar hududida 1.21 yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo tuman ichki ishlar boshqarmasining 14.02.2022-yildagi 31/725-sonli va 15.03.2022-yildagi 31/1199-sonli xatlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo tumani hokimligida 2022-yil 14-fevral kuni 115-son bilan ro‘yxatga olingan, Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasining 14.02.2022-yildagi 31/726-sonli va tuman hokimligida 2022-yil 16-mart kuni 266-son bilan ro‘yxatga olingan, 15.03.2022-yildagi 31/1199-sonli xatlari qanoatlantirilsin.

2. Sirdaryo yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi (Sh.Shamsiddinov) va tuman hududiy yo‘llardan foydalanish DUK (B.Bektemirov) belgilangan tartibda quyidagi joyga:

- tumandagi barcha ahamiyatdagi yo‘l va ko‘chalar bo‘yida joylashgan maktablar (1-ilovaga muvofiq) hududida 1.21 yo‘l belgisini o‘rnatsin.

3. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi YHXB (R.To‘rayev) o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari

B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi  **B.Mirzaqulov**

Sirdaryo tuman hokimining
2022 yil 28 martdagi
111-9-128-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo tumanida 1.21 yo‘l belgisi o‘rnatiladigan maktablar

RO'YXATI

№	Maktab nomi	Hudud nomi
1	1-maktab	Oqibat MFY
2	2-maktab	Taraqqiyot MFY
3	3-maktab	Bunyodkor MFY
4	4-maktab	Kamolot MFY
5	5-maktab	Yoshlik MFY
6	6-maktab	Yoshlik MFY
7	7-maktab	Ulug‘bek MFY
8	8-maktab	Sholikor MFY
9	9-maktab	Oq yo‘l MFY
10	10-maktab	Zarshunos MFY
11	11-maktab	Navro‘z MFY
12	12-maktab	Axillik MFY
13	13-maktab	Beshbuloq MFY
14	14-maktab	Xazina MFY
15	15-maktab	Ziyokor MFY
16	16-maktab	Istiqbol MFY
17	17-maktab	Istiqbol MFY
18	18-maktab	Matonat MFY
19	19-maktab	Dexqonobod MFY
20	20-maktab	Yangiobod MFY
21	21-maktab	Intilish MFY
22	22-maktab	Orzu MFY
23	23-maktab	Ilg‘or MFY
24	24-maktab	Baxmal MFY
25	25-maktab	Quyosh MFY
26	26-maktab	Orzu MFY
27	27-maktab	Paxtakor MFY
28	28-maktab	Navoiy MFY
29	29-maktab	Quyosh MFY
30	30-maktab	Xikmatli MFY
31	31-maktab	Islomobod MFY

32	32-maktab	Ishonch MFY
33	33-maktab	Kamolot MFY
34	34-maktab	Istiqbol MFY
35	35-maktab	Furqat MFY
36	36-maktab	Xazina MFY
37	37-maktab	Oq yo‘l MFY
38	38-maktab	Quyosh MFY
39	39-maktab	Ishonch MFY
40	40-maktab	Bahor MFY
41	41-maktab	Do‘stlik MFY
42	42-maktab	Adolat MFY
43	43-maktab	Bahor MFY